

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

SO'Z TARTIBINING SINTAKTIK POZITSIYA VA SEMANTIK DOMINANTLIK BELGILASHDAGI AHAMIYATI

Sobirov Anvar Kuvandikovich

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi, direktor, dotsent.

e-mail: anvarsobirov@1288gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-0860-1155>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada sintaktik pozitsiya gap tarkibidagi til birliklarining grammatik va kommunikativ joylashuv o'rnidir. Har bir so'z yoki sintaktik birlik gap ichida ma'lum pozitsiyani egallaydi va shu pozitsiya uning grammatik vazifasi, kommunikativ roli, semantik yukini belgilaydi. Sintaktik pozitsiya formal sintaksis, funksional sintaksis, kommunikativ grammatika uchun muhim tushuncha ega ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy nutq, so'z tartibi, kommunikativ roli, sintaktik, funksional sintaksis, dominantlik, semantik.

ВАЖНОСТЬ ПОРЯДКА СЛОВ В ОПРЕДЕЛЕНИИ ИНТАКСИЧЕСКОЙ ПОЗИЦИИ И СЕМАНТИЧЕСКОГО ДОМИНИРОВАНИЯ

Собиров Анвар Кувандикович

Центр педагогического мастерства Самаркандской области, директор, доцент.

Аннотация.

В данной статье синтаксическая позиция — это грамматическое и коммуникативное расположение языковых единиц в предложении. Каждое слово или синтаксическая единица занимает определенную позицию в предложении, и эта позиция определяет его грамматическую функцию, коммуникативную роль и семантическую нагрузку. Показано, что синтаксическая позиция имеет важное значение для формального синтаксиса, функционального синтаксиса и коммуникативной грамматики.

Ключевые слова: художественная речь, порядок слов, коммуникативная роль, синтаксическая позиция, функциональный синтаксис, доминирование, семантика.

THE IMPORTANCE OF WORD ORDER IN DETERMINING SYNTACTIC POSITION AND SEMANTIC DOMINANCE

Sobirov Anvar Kuvandikovich

Samarkand Regional Center for Pedagogical Excellence, Director, Associate Professor.

Abstract.

In this article, syntactic position is the grammatical and communicative location of language units in a sentence. Each word or syntactic unit occupies a certain position in a sentence, and this position determines its grammatical function, communicative role, and semantic load. It is shown that syntactic position has an important concept for formal syntax, functional syntax, and communicative grammar.

Keywords: Artistic speech, word order, communicative role, syntactic, functional syntax, dominance, semantics.

Kirish. So'z tartibi tilning sintaktik tizimini tashkil etuvchi asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, u nafaqat grammatik munosabatlarni, balki gapning kommunikativ va semantik tuzilishini ham belgilaydi. Har bir tilda so'zlarning gap tarkibida joylashish tartibi muayyan qonuniyatlarga asoslanadi va ushbu qonuniyatlar fikrning mantiqiy rivojlanishini ta'minlaydi [10; 203–204-b.]. O'zbek tilida so'z tartibi nisbatan erkin bo'lsa-da, uning o'zgarishi gapning ma'no markazi va kommunikativ yo'nalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Sintaktik pozitsiya gap tarkibidagi til birliklarining grammatik hamda kommunikativ joylashuvini ifodalaydi. Har bir so'z gapda muayyan sintaktik vazifani bajaradi va aynan egallagan pozitsiyasi orqali o'z funksiyasini namoyon etadi [9; 154-b.]. Shu sababli sintaktik pozitsiya formal sintaksis bilan bir qatorda funksional sintaksis hamda kommunikativ grammatikaning muhim tushunchalaridan biri hisoblanadi. Funksional sintaksis vakillarining ta'kidlashicha, gap bo'laklarining joylashuvi axborotning tinglovchiga qanday yetkazilishini belgilaydi. Ayniqsa, tema va rema munosabatlari sintaktik pozitsiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, gap boshida kelgan birlik ko'pincha tema, gap oxiridagi birlik esa yangi axborotni ifodalovchi rema vazifasini bajaradi [1; 201–202-b.].

Semantik dominantlik gap yoki yaxlit matn tarkibidagi muayyan til birligining asosiy ma'no markaziga aylanishini ifodalovchi lingvistik hodisadir. Bunday birlik boshqa komponentlarga nisbatan ko'proq semantik, kommunikativ va

pragmatik yukni o'zida mujassamlashtiradi hamda bayonning umumiy mazmuniy yo'nalishini belgilaydi. Dominant birlik faqat alohida so'z yoki so'z birikmasi shaklida emas, balki gap bo'lagi, sintaktik konstruksiya, takrorlanuvchi obraz, konsept yoki butun matn davomida yetakchilik qiluvchi mazmuniy unsur ko'rinishida ham namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli semantik dominantlik gap sathidagina emas, balki mikromatn, makromatn va diskurs doirasida ham o'rganiladi.

Dominant birlikning asosiy xususiyati uning matndagi boshqa birliklarni mazmunan o'ziga bo'ysundirishida namoyon bo'ladi. Ya'ni matn tarkibidagi ikkilamchi ma'no unsurlari dominant birlik atrofida birlashib, uning semantik imkoniyatlarini ochishga, aniqlashtirishga yoki kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, badiiy matnda muallif tomonidan muntazam takrorlanadigan "yo'l", "tun", "sukut", "xotira" kabi birliklar oddiy nominativ ma'nodan tashqariga chiqib, asarning g'oyaviy-estetik markaziga aylanishi mumkin. Bunday holatda dominantlik faqat lug'aviy ma'no bilan emas, balki kontekstual, ramziy va assosiativ ma'nolar bilan ham bog'lanadi. Semantik dominantlik sintaktik pozitsiya, mantiqiy urg'u, intonatsiya, takror, parallel qurilmalar, inversiya, kontekst, leksik tanlov va stilistik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Mazkur vositalar orasida sintaktik pozitsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki gap tarkibidagi birlikning qayerda joylashishi uning grammatik vazifasiga emas, balki kommunikativ qiymatini ham belgilaydi. Muayyan birlikning gap boshida, o'rtasida yoki oxirida kelishi tinglovchi yoxud o'quvchi e'tiborining qanday yo'naltirilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Sintaktik pozitsiya gap tarkibidagi til birliklarining grammatik va kommunikativ jihatdan joylashuvini ifodalovchi sintaktik kategoriyadir. Har bir so'z yoki sintaktik birlik gap ichida muayyan pozitsiyani egallaydi va aynan shu joylashuv orqali uning sintaktik vazifasi, semantik yuklamasi hamda kommunikativ ahamiyati belgilanadi. Shuning uchun sintaktik pozitsiyani faqat til birliklarining formal ketma-ketligi sifatida talqin qilish yetarli emas. U axborotning qanday tashkil etilishi, qaysi unsur oldindan ma'lum, qaysi unsur yangi ekanligi va muallif e'tiborni aynan qaysi birlikka qaratayotganini ko'rsatuvchi muhim vosita hisoblanadi [5; 181-182-p.].

O'zbek tili ega-to'ldiruvchi-kesim, ya'ni SOV tipidagi tillar guruhiga mansub bo'lib, unda gap bo'laklarining odatiy tartibi nisbatan barqaror grammatik me'yor sifatida qaraladi. Odatda, ega gap boshida, ikkinchi darajali bo'laklar o'rta pozitsiyada, kesim esa gap oxirida joylashadi. Masalan, "Talabalar yangi loyihani bugun taqdim etdilar" gapida ega boshlang'ich, kesim esa final pozitsiyani egallagan. Mazkur tartib grammatik jihatdan neytral bo'lib, axborotni odatiy shaklda ifodalaydi.

Biroq badiiy, publitsistik va og'zaki nutqda so'zlarning odatiy tartibi muallifning kommunikativ yoki uslubiy maqsadiga ko'ra o'zgarishi mumkin. Bunday o'zgarish inversiya hodisasi orqali amalga oshib, muayyan birlikni alohida ajratish, unga hissiy-ekspressiv bo'yoq berish yoki uning semantik dominantligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, "Bugun taqdim etdilar talabalar yangi loyihani" shaklidagi gap odatiy nutq uchun xos bo'lmasa-da, unda "bugun" birligining boshlang'ich pozitsiyaga chiqarilishi vaqt ma'nosini alohida ta'kidlaydi. "Yangi loyihani taqdim etdilar talabalar" gapida esa obyektning oldingi pozitsiyaga ko'chirilishi diqqat markazini "yangi loyiha" birligiga yo'naltiradi.

Sintaktik pozitsiya gapning aktual bo'linishi bilan chambarchas bog'liq. Aktual bo'linish nazariyasida gap tarkibi tema va rema qismlariga ajratiladi. Tema nutq jarayonida oldindan ma'lum bo'lgan, suhbatdoshlar uchun tayanch vazifasini bajaruvchi axborotni ifodalasa, rema aynan shu tema haqida berilayotgan yangi, muhim va kommunikativ jihatdan asosiy ma'lumotni anglatadi. Vilyam Mathesius gapdagi pozitsion joylashuvni tema-remamunosabati bilan bog'lab, sintaktik tartibning kommunikativ vazifasiga alohida e'tibor qaratgan.

O'zbek tilida tema, odatda, gapning boshlang'ich pozitsiyasida, rema esa final pozitsiyada keladi. Masalan, "Universitet talabalar uchun yangi loyiha boshladi" gapida "universitet" birligi tema sifatida oldingi kontekstga tayanuvchi axborotni bildirishi mumkin. "Talabalar uchun yangi loyiha boshladi" qismi esa universitet faoliyati haqida yangi ma'lumotni ifodalaydi. Biroq tema va rema doimo qat'iy ravishda gapning muayyan joyiga bog'lanmaydi. Ularning aniqlanishida kontekst, intonatsiya, mantiqiy urg'u va nutqiy vaziyat ham muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich pozitsiyadagi birlik ko'pincha diskursiv dominant vazifasini bajaradi. Chunki matn yoki gap aynan shu birlikdan boshlanib, keyingi ma'lumotlar uning atrofida shakllanadi. Masalan, "Universitet talabalar uchun yangi loyiha boshladi" gapida "universitet" leksemasi suhbat mavzusi sifatida tanlangan bo'lsa, u tema va diskursiv dominant maqomiga ega bo'ladi. Keyingi gaplar ham universitet faoliyatiga bag'ishlansa, mazkur birlik butun mikromatnning semantik markaziga aylanishi mumkin: "Universitet talabalar uchun yangi loyiha boshladi. Mazkur loyiha yoshlarning ilmiy faolligini oshirishga qaratilgan. Universitet rahbariyati uning amalga oshirilishini muntazam nazorat qiladi". Ushbu parchada "universitet" tushunchasi bevosita yoki bilvosita barcha gaplarni birlashtiruvchi dominant konsept sifatida namoyon bo'ladi.

Final pozitsiya esa ko'pincha rematik markazning shakllanishi uchun qulay imkoniyat yaratadi. O'zbek tilida kesimning odatda gap oxirida kelishi sababli final pozitsiya grammatik va kommunikativ jihatdan kuchli hisoblanadi. Gap oxiriga joylashtirilgan birlik tinglovchi xotirasida nisbatan faolroq saqlanadi hamda yangi axborot sifatida qabul qilinadi. Masalan, "Men bugun yangi kitob oldim" gapida neytral tartibga ko'ra "yangi kitob" birikmasi harakatning obyekti sanaladi. Biroq mantiqiy urg'u "kitob" leksemasiga tushsa, aynan shu birlik gapning semantik dominantiga aylanadi. Mazkur gap "Men bugun yangi KITOB oldim" tarzida talaffuz qilinganda, boshqa buyum emas, aynan kitob xarid qilingani alohida ta'kidlanadi.

Semantik dominantlikning yuzaga kelishida mantiqiy urg'u va intonatsiya sintaktik pozitsiyani to'ldiruvchi muhim vositalardir. Bir xil sintaktik tuzilishga ega gap turli birliklarga urg'u berish orqali har xil kommunikativ mazmun kasb etishi mumkin. Masalan, "Dilnoza kecha kutubxonada yangi kitob o'qidi" gapida urg'u "Dilnoza" birligiga tushsa, harakatni kim bajargani; "kecha" so'ziga tushsa, harakatning qachon sodir bo'lgani; "kutubxonada" birligiga tushsa, voqea joyi; "yangi kitob" birikmasiga tushsa, o'qilgan obyekt semantik dominantga aylanadi. Demak, dominantlik faqat so'z tartibi

bilan emas, balki prosodik vositalar orqali ham belgilanadi.

Fokus tushunchasi ham semantik dominantlik bilan uzviy bog'liq. Fokus gap tarkibida so'zlovchi tomonidan alohida ajratilgan va tinglovchi e'tiboriga havola etilgan axborot unsuridir. Fokuslangan birlik odatda yangi, qarama-qarshi qo'yilgan, tuzatilgan yoki alohida ta'kidlangan ma'lumotni ifodalaydi. Masalan, "Bu topshiriqni Aziz bajardi" gapida oddiy holatda "Aziz" rematik markaz bo'lishi mumkin. "Bu topshiriqni AZIZ bajardi, Anvar emas" shaklida esa "Aziz" kontrastiv fokusga aylanadi. Bunday vaziyatda uning semantik dominantligi qarama-qarshilik asosida yanada kuchayadi.

Semantik dominantlik va fokus bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lsa-da, ular to'liq aynan hodisalar emas. Fokus ko'proq muayyan kommunikativ vaziyatda alohida ajratilgan axborot unsuriga taalluqli bo'lsa, semantik dominantlik kengroq hodisa bo'lib, butun gap, matn yoki diskursning mazmuniy markazini qamrab olishi mumkin. Fokus bir gap doirasida qisqa muddatli ajratish vazifasini bajarsa, dominant birlik butun matn davomida o'zining yetakchi mavqei saqlab qolishi mumkin. Shuningdek, bir matnda bir nechta fokuslangan birlik mavjud bo'lsa-da, ularning barchasi umumiy semantik dominantga xizmat qilishi ehtimoldan xoli emas.

Takror hodisasi ham semantik dominantlikni shakllantiruvchi samarali vositalardan biridir. Muayyan so'z, birikma yoki sintaktik konstruksiyaning muntazam takrorlanishi o'quvchi e'tiborini shu birlikka qaratadi va uning ma'no salmog'ini oshiradi. Masalan, "U kutdi. U uzoq kutdi. U umid bilan kutdi" parchasida "kutdi" fe'lining takrorlanishi kutish holatini matnning semantik va emotsional markaziga aylantiradi. Badiiy nutqda anafora, epifora, leksik takror va sintaktik parallelizm dominant ma'noni kuchaytirish, ritmik yaxlitlik yaratish hamda muallifning subyektiv munosabatini ifodalashga xizmat qiladi.

Kontekst semantik dominantlikni aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayrim hollarda gapning grammatik tuzilishi yoki so'z tartibi qaysi birlik dominant ekanini to'liq ko'rsatmaydi. Bunday vaziyatda oldingi va keyingi gaplar, nutqiy vaziyat, muallif maqsadi hamda adresatning bilim doirasi hisobga olinadi. Masalan, "U nihoyat qaytdi" gapida "u", "nihoyat" yoki "qaytdi" birliklaridan qaysi biri dominant ekanini faqat kengroq kontekst asosida belgilash mumkin. Agar matnda uzoq vaqt kutilgan shaxs haqida gap ketayotgan bo'lsa, "qaytdi" fe'li asosiy mazmuniy markazga aylanadi. Agar qaytishning kechikishi alohida ta'kidlangan bo'lsa, "nihoyat" ravishi dominant semantik yukni egallaydi.

Semantik dominantlik pragmatik maqsad bilan ham bog'liq. So'zlovchi yoki muallif axborotni shunchaki bayon etmaydi, balki tinglovchining munosabatini shakllantirish, uni ishonitirish, unda muayyan hissiy holat uyg'otish yoki ma'lum xulosaga yo'naltirishga intiladi. Shu sababli publitsistik va reklama matnlarida dominant birliklar ko'pincha shior, kalit so'z, baholovchi leksema va takroriy sintaktik konstruksiyalar orqali shakllantiriladi. Masalan, "Kelajak bilimdan boshlanadi" jumlasida "bilim" leksemasi mazmuniy hamda pragmatik dominant bo'lib, butun xabarning g'oyaviy yo'nalishini belgilaydi.

Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan semantik dominantlik inson ongida muayyan konseptning faollashuvi bilan bog'lanadi. Matnni qabul qilish jarayonida barcha birliklar bir xil darajada idrok etilmaydi. Ayrim birliklar fon vazifasini bajarsa, boshqalari kognitiv markazga chiqadi. Dominant birlik o'quvchi yoki tinglovchining diqqatini boshqaradi, matndagi axborotni guruhlashga yordam beradi hamda uning xotirada saqlanish darajasini oshiradi. Shu ma'noda semantik dominantlik til birliklarining iyerarxik tashkil etilishini va matn mazmunining inson tafakkurida qanday modellashtirilishini ko'rsatuvchi hodisadir.

Diskurs tahlilida dominantlik muayyan mavzu, obraz, baho yoki konseptning nutq davomida izchil ravishda yetakchilik qilishi bilan tavsiflanadi. Masalan, ekologik diskursda "tabiatni muhofaza qilish", siyosiy diskursda "barqarorlik", pedagogik diskursda "ta'lim sifati" kabi tushunchalar asosiy semantik dominant sifatida qatnashishi mumkin. Matndagi alohida gaplar, misollar, dalillar va baholash vositalari ana shu dominant konseptni asoslash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbek tilida gapning yakuniy pozitsiyasi kommunikativ jihatdan kuchli hisoblanadi. Shu sababli yangi axborot, odatda, gap oxirida joylashadi va rematik markaz sifatida namoyon bo'ladi. Biroq muallif uslubiy maqsadni ko'zlagan hollarda odatiy so'z tartibini o'zgartirib, muhim birlikni gap boshiga chiqarishi mumkin. Bunday holat inversiya deb ataladi va u badiiy matnlarda ekspressivlik hamda emotsionallikni kuchaytirishga xizmat qiladi [4; 98–99-b.].

Diskurs lingvistikasida sintaktik pozitsiya matnning izchilligini ta'minlovchi vositalardan biri sifatida qaraladi. Oldingi gapning remasi keyingi gapning temasiga aylanishi matnning kommunikativ rivojlanishini ta'minlaydi. Natijada matnda axborotning ketma-ketligi va mantiqiy yaxlitligi yuzaga keladi [12; 97–98-p.].

Gapdagi har bir sintaktik pozitsiya axborotning taqsimlanishida muhim rol o'ynaydi. Kommunikativ grammatika nuqtai nazaridan gap tema va remadan tashkil topadi.

Tema – tinglovchiga ma'lum bo'lgan axborot.

Rema – yangi yoki asosiy axborot.

Masalan: **Talabalar yangi loyihani taqdim etdilar.**

Bu gapda **Talabalar** tema vazifasini bajaradi, **yangi loyihani taqdim etdilar** esa remani tashkil etadi. Agar so'z tartibi o'zgarsa: **Yangi loyihani talabalar taqdim etdilar.** Bu holatda diqqat markazi **talabalar** so'ziga ko'chadi va aynan ular mazkur ishni bajargani ta'kidlanadi.

Semantik dominantlik – gap yoki matnda ma'lum birlikning asosiy ma'no markaziga aylanishidir. Dominant birlik boshqa birliklarga nisbatan ko'proq semantik yukni o'zida mujassamlashtiradi. Dominantlik quyidagi vositalar yordamida yuzaga keladi:

- sintaktik pozitsiya;
- intonatsiya;
- mantiqiy urg'u;

- takror;
- kontekst;
- leksik tanlov.

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan esa sintaktik pozitsiya inson tafakkuridagi axborotni qayta ishlash mexanizmlari bilan bog'liq. Gap boshidagi birlik tinglovchi ongida dastlabki konseptual modelni shakllantirsa, gap oxiridagi birlik yangi bilim sifatida qabul qilinadi. Shu bois sintaktik pozitsiya nafaqat grammatik, balki psixolingvistik ahamiyatga ham ega.

So'z tartibining sintaktik pozitsiyani belgilashdagi ahamiyati shundaki, u gap bo'laklari o'rtasidagi grammatik munosabatlarni ochib beradi. O'zbek tili flektiv emas, balki agglutinatativ til bo'lgani sababli grammatik ma'nolar ko'proq qo'shimchalar orqali ifodalansa-da, so'z tartibi ham grammatik munosabatlarni aniqlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, murakkab gaplar va badiiy matnlarda so'z tartibining o'zgarishi sintaktik munosabatlarning o'ziga xos talqinini yuzaga keltiradi. Masalan: **Talaba ilmiy maqolani yozdi.**

Mazkur gapda ega – **talaba**, to'ldiruvchi – **ilmiy maqolani**, kesim – **yo'zdi** hisoblanadi. Gapdagi so'zlar odatiy tartibda joylashganligi sababli mazmun aniq va tushunarli ifodalangan. Agar so'z tartibi quyidagicha o'zgarsa:

Ilmiy maqolani talaba yozdi.

Bu holda grammatik munosabat o'zgarmaydi, biroq kommunikativ markaz o'zgaradi. Endi tinglovchining diqqati aynan **talaba** so'ziga qaratiladi. Demak, sintaktik pozitsiyaning almashishi grammatik tuzilishni saqlagan holda kommunikativ vazifani o'zgartiradi. Tilshunoslikda sintaktik pozitsiya funksional sintaksisning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Funksional sintaksis vakillari gap bo'laklarining nafaqat grammatik, balki kommunikativ vazifalarini ham tahlil qiladilar. Ularning fikricha, gapdagi har bir birlikning joylashuvi axborotning taqsimlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Bu masala Vilyam Mathesius tomonidan ishlab chiqilgan aktual bo'linish nazariyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu nazariyaga ko'ra, har qanday gap ikki qismdan iborat bo'ladi: tema va rema.

Tema – suhbat ishtirokchilariga avvaldan ma'lum bo'lgan axborot, rema esa yangi axborot hisoblanadi. O'zbek tilida tema ko'pincha gap boshida, rema esa gap oxirida joylashadi. Chunki gap oxiri kommunikativ jihatdan eng kuchli pozitsiya sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, so'z tartibi tilning sintaktik tizimida muhim o'rin tutuvchi vosita bo'lib, u nafaqat gap bo'laklarining grammatik munosabatlarini, balki fikrning semantik va kommunikativ tuzilishini ham belgilaydi. Sintaktik pozitsiya gap tarkibidagi har bir birlikning grammatik vazifasi, axborot yuklamasi va kommunikativ rolini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. So'zlarning gap ichidagi joylashuvi tema va rema munosabatlarini shakllantirib, axborotning tinglovchi yoki o'quvchiga qanday yetkazilishini boshqaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sintaktik pozitsiyaning o'zgarishi semantik dominantlikning yuzaga kelishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Gap boshida yoki gap oxirida joylashtirilgan til birliklari mantiqiy urg'u va kommunikativ markaz vazifasini bajarib, muallifning pragmatik maqsadini ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy matnlarda inversiya, fokuslash va boshqa sintaktik usullar orqali muhim mazmuniy birliklar ajratilib, asarning emotsional-ekspressiv ta'siri kuchaytiriladi. Shuningdek, sintaktik pozitsiya diskursning izchilligini ta'minlash, tema va remaning almashinuvini tartibga solish hamda matnning mantiqiy yaxlitligini saqlashda muhim vosita hisoblanadi. Kognitiv va pragmatik yondashuvlar ham so'z tartibining inson tafakkuri, axborotni idrok etish va kommunikativ niyatni ifodalashdagi o'rnini tasdiqlaydi. Demak, so'z tartibi sintaktik pozitsiya va semantik dominantlikni belgilovchi asosiy lingvistik omillardan biri bo'lib, uning funksional imkoniyatlarini chuqur o'rganish o'zbek tilining sintaktik, semantik va lingvopoetik xususiyatlarini yanada to'liq yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 201–202.
2. Fillmore C. J. The Case for Case // Universals in Linguistic Theory. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1968. – P. 11–12.
3. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – P. 145–146.
4. G'ulomov A., Asqarov M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1987. – B. 98–99.
5. Halliday M. A. K. An Introduction to Functional Grammar. 3rd ed. – London: Arnold, 2004. – P. 181–182.
6. Jakobson R. Essays in General Linguistics. – The Hague: Mouton, 1971. – P. 76–77.
7. Mathesius V. A Functional Analysis of Present Day English on a General Linguistic Basis. – Prague: Academia, 1975. – P. 52–53.
8. Chomsky N. Syntactic Structures. – The Hague: Mouton, 1957. – P. 13.
9. Nurmonov A. O'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B. 154.
10. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B. 203–204.
11. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – B. 256–257.
12. van Dijk T. A. Discourse as Structure and Process. – London: Sage Publications, 1997. – P. 97–98.